

**RAQAMLI ASRDA ELEKTRON DALILLAR: O'ZBEKISTON
PROTSESSUAL QONUNCHILIGI TAHLILI VA ANGLIYA
STANDARTLARI**

Qodirberdiyev Rasulbek Farhod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli asrda elektron dalillar institutining mohiyati, ularning sud amaliyotida isbot vositasi sifatidagi o'rni, O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligi va Angliya huquq tizimi standartlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar yoritiladi. Xususan, elektron dalillarni to'plash, saqlash va sudda taqdim etish tartibi, ularning ishonchliligi va haqiqiylikini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Elektron dalil, raqamli hujjat, isbot vositasi, protsessual qonunchilik, Angliya huquqi, autentifikatsiya, raqamli xavfsizlik.

Kirish

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda huquqiy tizimda ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarida elektron dalillarning ahamiyati ortib bormoqda. Sudda e-mail yozishmalari, video va audio yozuvlar, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar, kompyuter loglari kabi raqamli axborotlar isbot vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Elektron dalil tushunchasi va huquqiy tabiati

Elektron dalillar — bu elektron shaklda mavjud bo'lgan, sudda muayyan faktni isbotlashga xizmat qiluvchi axborotlardir. Ular an'anaviy dalillardan farqli ravishda raqamli muhitda yaratiladi, saqlanadi va uzatiladi. Masalan, elektron pochta, ijtimoiy tarmoq yozishmalari, internet saytlardagi metama'lumotlar,

video va audio fayllar, raqamli imzolar, IP manzillar elektron dalillar sirasiga kiradi.

Angliya huquqidagi elektron dalillar tizimi

Angliya huquqida elektron dalillar masalasi Civil Evidence Act 1995 va Police and Criminal Evidence Act 1984 hujjatlarida tartibga solingan. Ushbu standartlarda elektron dalillarni qabul qilish uchun bir necha asosiy talablar belgilangan:

1. Dalil manbasining ishonchliligi.
2. Zanjirli saqlanish (chain of custody).
3. Autentifikatsiya.
4. "Best Evidence Rule" tamoyiliga rioya qilish.

O'zbekiston qonunchiligidagi yondashuv

O'zbekiston huquq tizimida elektron dalillarni taqdim etish, ularning ishonchliligi va dalil sifatidagi ahamiyati asta-sekin shakllanmoqda. 2021-yil 15-iyulda qabul qilingan "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonun elektron hujjatlarning yuridik kuchini mustahkamlab, hujjatlarni to'g'ri va haqiqiylikni isbotlab berdi. Shuningdek, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun ham elektron hujjatlarni isbot vositasi sifatida tan olishga asos bo'ldi. Bu qonunlar hujjatlarning sifatlilikini va ishonchliligini aniqlash uchun ishlab chiqilgan.

Xalqaro standartlar bilan uyg'unlik

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan Budapesht konvensiyasi (2001) raqamli dalillar bilan ishlashda global standart sifatida tan olingan. Ushbu konvensiyada raqamli dalillarni saqlash, konfiskatsiya qilish va uzatish bo'yicha protsessual

me'yorlar belgilangan bo'lib, O'zbekiston ushbu yo'nalishda moslashtirilgan qonunchilikni joriy etmoqda.

Takliflar (Tavsiyalar)

1. Elektron dalillar to'g'risidagi alohida maxsus qonun qabul qilish.
2. Sud-ekspertiza tizimini raqamlashtirish va elektron fayllarni kriptografik tekshirish usullarini joriy etish.
3. Angliya tajribasidagi "Best Evidence Rule" tamoyilini o'zlashtirish.
4. Sud xodimlari, tergovchilar va advokatlar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etish.
5. Raqamli iz zanjiri tizimini joriy etish.
6. Sud qarorlarini elektron bazada saqlash uchun blokcheyn texnologiyalarini tatbiq etish.

Xulosa

Raqamli asrda adolatli sudlov tizimini ta'minlash uchun elektron dalillar muhim isbot vositasiga aylanmoqda. O'zbekiston qonunchiligi ushbu sohada Angliya va Yevropa standartlaridan va ularning elektrob texnologiyalaridan o'rnak olgan holda yanada takomillashtirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonun (2021-yil).
3. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun.
4. Civil Evidence Act 1995 (UK).
5. Police and Criminal Evidence Act 1984 (UK).

6. Budapest Convention on Cybercrime (2001).
7. UNODC. Practical Guide on Electronic Evidence in Criminal Proceedings.
8. House of Lords Digital Evidence Report, 2023.